MAKTABGACHA TA’LIM UCHUN O‘QUV-METODIK KOMPLEKSLARNI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISH MASALALARI

Daminov Asliddin Shokir o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi**,** Maktabgacha ta’lim uchun o‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi
e-mail: asliddindaminov88@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o‘z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik paradigmalari, maktagacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik komplekslar yaratish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, o‘quv reja, dastur, o‘quv-metodik kompleks, davlat ta’lim standartlari, resurs, rivojlanish xususiyatlari, ilmiy-metodik ishlar, tadqiqotlar;

ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ ДЛЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье также рассматривается внедрение инновационных педагогических технологий в образовательный процесс в дошкольных образовательных организациях, разработка и внедрение новых учебных программ, программ и учебно-методической литературы, отвечающих современным требованиям и потребностям общества, а также его жизненным интересам. даются характеристики формирования полноценно зрелой личности, способной реализовать свой творческий потенциал в интересах общества и государства.

Ключевые слова: Дошкольное образование, дошкольные образовательные организации, учебный план, программа, учебно-методический комплекс, государственные образовательные стандарты, ресурсы, особенности развития, научно-методические работы, исследования;

ISSUES OF DEVELOPMENT AND IMPLEMENTATION OF CURRICULUM AND METHODOLOGICAL COMPLEXES FOR PRESCHOOL EDUCATION

Abstract. In this article, the introduction of innovative pedagogical technologies into the educational process in preschool educational organizations, the development and implementation of new curricula, programs and teaching-methodical literature that meet modern requirements and needs of society, as well as their vital interests, also, the characteristics of forming a fully matured person who is able to realize his creative potential in the interests of the society and the state are given.

Keywords: Preschool education, preschool education organizations, curriculum, program, educational-methodical complex, state educational standards, resources, development features, scientific-methodical works, research;

Kirish. Jahonda maktabgacha yoshidagi bolalarning shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini yaratish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning ilmiy va tashkiliy-metodik yondashuvlarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda qulay ta’lim muhitini yaratish, innovatsion yondashuvlar asosida interaktiv ta’lim shakllarini joriy etish kabi istiqbolli amaliyotlar bilan “Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Global Learning Innovation Hub (GLIH)” [9], UNESCO STEM “Science, Technology, Engineering and Mathematics” [10] kabi muhim manfaatdor tomonlar shug‘ullanmoqda.

Mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida ijodkorlik, matematik tasavvurlar va boshqa muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalarni joriy qilish kabi bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. “Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q” [7]. Bundan kelib chiqadiki, maktabgacha ta’lim bolalarning ilk tarbiyasi, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishida muhim bosqichdir. Bu bosqichda bolalarning bilish qobiliyatlari, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash uchun zamonaviy o‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik va psixologik so‘rovlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish va umumlashtirish, ilmiy tavsifga asoslangan hamda diagnostik so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha yurtimiz olimlari A.Askarov, U.Begimqulov, M.Vaxobov, R.Djurayev, U.Inoyatov, K.Karimov, N.Mamadov, O.Maxmudova, A.Melibayev,

M.T.Mirsoliyeva, O.Musurmanova, Q.T.Olimov, N.Raxmankulova, Sh.Saidkulov, D.Sayfurov, R.Safarova, F.Tojiyeva, B.Xodjayev, T.Xurvaliyeva, D.Shadimetova, A.Shin, N.Shodiyev, T.Shoymardonov, M.Yuldashev, Sh.Qurbonov kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan.

Ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o‘z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 128-son qarori qabul qilinganligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv metodik komplekslarini ishlab chiqish va joriy etishda muhim me’yoriy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini raqamli boshqarish mexanizmini takomillashtirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini boshqarishni transformatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, maktabgacha ta’lim tizimining ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Barcha bog‘chalarda ovqat, davomat, badal puli kabi barcha jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish, 250 ta davlat bog‘chasida ta’lim va tarbiya sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy qilish” [6] bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda o‘quv-metodik komplekslarida quyidagilar bo‘lishi shart qilib qo‘yilgan:

- o‘quv va ishchi dasturlar;
- taqvim-mavzuiy reja;
- ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’limning texnologik modeli va texnologik xaritasi;
- ma’ruza matnlari;
- seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ishlanmalari;
- mustaqil ta’lim topshiriqlari;
- asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati;
- prezentatsiyalar;
- nazorat va baholash uchun topshiriqlar;
- sillabus;
- fanni o‘qitishga doir tashkiliy ko‘rsatmalar.

O‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish vazifalari:

1. O‘quv-metodik ta’minotni tayyorlash.

2. Ishlab chiqarish , fan, texnika va ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan holda fan mazmunini tizimlashtirish.

3. Sifatli mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlovchi o‘quv-metodik va boshqa materiallar bilan o‘quv jarayonini ta’minlash.

4. Ta’lim jarayoniga faol usul va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

5. Talabalarning mustaqil ishlarini va ularning bilimlarini nazorat qilishni to‘g‘ri tashkillashtirish va rejalashtirish.

6. Elektron darslik, o‘quv metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish uchun o‘quv metodik materiallar ishlab chiqish.

7. O‘quv jarayonini sifatini tizimli nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

O‘quv-metodik komplekslar:

- talabalar tomonidan o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishni;
- talabalar bilimini nazrorat qilishni;
- barcha turdagi mashg‘ulotlarni tashkillashtirish bo‘yicha metodik ta’minotni;
- qo‘shimcha axborot ta’minotni ta’minlashi kerak.

O‘quv jarayonida o‘quv-metodik komplekslar:

- o‘quv materialini o‘zlashtirishda talabalarga amaliy va metodik yordam berish;
- fan bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkillashtirishda va o‘tkazishda o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish;
- o‘quv jarayonini metodik ta’minotini takomillashtirishda, uni baholash va rejalashtirishga asos uchun zarur.

O‘quv-metodik komplekslar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyani yagona usulda olib borish va bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bilim berish uchun mo‘ljallangan metodik qo‘llanma, darsliklar va o‘yin dasturlari to‘plamidir. Ushbu komplekslar quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

Bolalarning intellektual rivojlanishini ta’minlash: O‘quv-metodik komplekslar bolalar uchun o‘quv materiallarini qiziqarli va oson tushunarli shaklda taqdim etadi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Ta’lim jarayonida bolalarning bir-birlari bilan muloqot qilishiga imkon yaratish, ularning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Bolalarda ijodiy tafakkur va o‘ylash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan amaliy mashg‘ulot va o‘yinlar majmuasi mavjud bo‘ladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun sifatli o‘quv-metodik komplekslarni yaratish jarayonida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratilmoqda:

1. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish: Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan multimedia dasturlarini yaratish orqali bolalarning bilim olish qobiliyatini o‘stirish.
2. Ko‘rgazmali o‘quv materiallarini yaratish: Rang-barang va qiziqarli o‘yinlar, plakatlar, interaktiv darsliklar orqali bolalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini kuchaytirish.
3. Metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va takomillashtirish: Bolalar bilan ishlashda yordam beradigan metodik qo‘llanmalarni muntazam yangilab borish va yangi pedagogik usullardan foydalanish.

Maktabgacha ta’lim tizimida o‘quv-metodik komplekslarni joriy etishda qator muammolar kuzatiladi:

Malakali mutaxassislar yetishmasligi: Zamonaviy o‘quv-metodik komplekslar bilan ishlay oladigan malakali pedagoglar yetishmasligi ushbu jarayonni murakkablashtiradi.

Resurs va moddiy ta’minot yetishmovchiligi: Ko‘plab maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik materiallar va uskunalar yetarli emas, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash: O‘quv-metodik komplekslar bilan ta’minlash uchun byudjetdan mablag‘ ajratish va xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim uchun o‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish orqali kelajak avlodning bilimli va tarbiyali bo‘lib shakllanishiga hissa qo‘shiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa zamonaviy talablarga javob beradigan metodik majmualarni yaratish va pedagoglar malakasini oshirish kabi chora-tadbirlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va bolalar uchun qulay o‘quv sharoitlarini yaratish orqali mamlakatimizda bilimli va ijodkor yoshlarni tarbiyalashga erishishimiz mumkin.

Tavsiyalar. O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta’lim ham yangi bosqichga chiqmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tayyorlanayotgan o‘quv-metodik komplekslar quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilgan holda tayyorlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Davlat ta’lim standartlariga moslik: Maktabgacha ta’lim uchun o‘quv-metodik majmualar davlat tomonidan tasdiqlangan standartlarga mos ravishda ishlab chiqiladi va tarqatiladi.

Bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlariga moslashuvchanlik: Har bir metodik material bola yoshining xususiyatlarini, rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Milliy qadriyat va an’analarga tayangan holda rivojlanish: O‘quv-metodik komplekslar bolalarga milliy qadriyatlarni singdirish va ularni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019- yil 16 -dekabr. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-128-son qarori. www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” gi PQ 4312-sonli qarori. www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 -yil 22- dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya Davlat standartining tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori. www.lex.uz.

6. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi, https://president.uz/oz/lists/view/7008

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view.

8. Rustamova G. Development of unconventional and logical thinking in preschool children. Academic research in modern science. 1(13). 2022. 110-113.